ANDIJON VILOYATI MARHAMAT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 29-avgust | 339-1-24-Q/24 | Marhamat tumani hokimligi

Tumanda fanlar chuqur o‘qitiladigan maktablar hamda maktab internatlarini umumiy o‘rta ta’lim maktablari sifatida qayta tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-aprel kungi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi PF-106-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-aprel kungi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi PF-106-son Farmoni 14-bandi hamda tuman maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limining 2024-yil 28-iyundagi 242-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi sifatida qayta tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan maktab internatlari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktabi sifatida qayta tashkil etiladigan ayrim fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qarorga asosan:

- tumandagi 3- va 31-ixtisoslashtirilgan maktab internatlari 2024-2025 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim maktablari sifatida qayta tashki etilsin;
- fanlar chuqur o‘qitiladigan maktablar hamda maktab internatlarining rahbarlari o‘z faoliyatini ixtisoslashtirilgan dasturlar asosida ta’lim olayotgan o‘quvchilar o‘qishini bitirgunga qadar davom ettirsin;

- fanlar chuqur o‘qitiladigan maktablar hamda maktab internatlarining rahbarlariga hamda ixtisoslashtirilgan fanlardan dars o‘tganligi uchun pedagog kadrlariga amalda belgilangan qo‘shimcha ustama haqlar ushbu maktablardagi ixtisoslashtirilgan sinflar faoliyati tugatilganiga qadar saqlab qolinsin.

4. Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mudiri S. Shamshiyevaga:

- yangi tashkil etilatigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining mikrouchastkalarini belgilab berish;
- yangi tashkil etilgan umumta’lim maktablariga zamonaviy pedagogik metodikalar va texnologiyalarni egallagan malakali tajribali pedagog kadrlarni saqlab qolish;
- maktabda davlat ta’lim standartlari talablari asosida chuqur ta’lim tayyorgarligini o‘chirish va o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon qilish va faollashtirish vazifalari yuklatilsin.

5. Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (S. Shamshiyeva) iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X. Erkaboyev) bilan birga ixtisoslashtirilgan maktab internatlarining ixtisoslashtirilgan sinflari tugaguniga qadar ularni qonunchilikda belgilangan tartibda moliyalashtirish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushurilgan o‘z nomi, davlat tilida yozilgan muhri va burchak shtamplarini olish, ularni belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatsin.

6. Tuman hokimligi matbuot xizmati (S. Keldiboyev)ga mazkur qaror mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (A. Axunov) tumanda tashkil etilayotgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarini muhr va shtamplarini almashtirishda belgilangan tartibda ruxsat berishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh. Abdurazzaqov va tuman hokimining o‘rinbosari A. Maxamatov zimmalariga yukatilsin.

Tuman hokimi **O‘.Mamurov**

Marhamat tuman hokimining
2024-yil 29-avgustdagi
339-1-24-Q/24-son qaroriga
1-ilova

T/r	Tuman(shahar) nomi	Ta’lim muassasasi nomi *(to‘liq)*	Muassasa quvvati	2022-2023 o‘quv yilida jami o‘quvchi soni	Koeffisiyenti	Binoga egaligi *(alohida o‘z binosiga ega/boshqa muassasa binosida)*	Muassasa binosining qurilgan yili	Bino turi *(loyiha asosida/ moslashtirilgan)*	Bino holati *(ta’mirtalab/yaxshi)*	2023-2024 o‘quv yilida o‘quvchilar soni (9-11 sinf)	Keyingi faoliyati yuzasidan taklif
											- Viloyat hokimligi bilan kelishgan holda amalda ta’lim olayotgan o‘quvchilar bitirguniga qadar maktab- internat sifatida faoliyatini davom ettirish, ***- umumiy o‘rta ta’lim maktabiga aylantirish;*** ***- Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi va viloyat hokimliklari bilan kelishgan holda maktab-internatni Agentlik tasarrufiga o‘tkazish***

1	Marham at tumani	3-ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktab-internati	450	337	0.7	Alohida o‘z binosiga ega	1959 yil	Loyiha asosida	yaxshi	171	Umumiy o‘rta ta’lim maktabiga aylantirish;
2	Marham at tumani	31-ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktab-internati	450	308	0.7	Alohida o‘z binosiga ega	1996 yil	Loyiha asosida	yaxshi	159	Umumiy o‘rta ta’lim maktabiga aylantirish;